

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta’lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 60530200 – Geografiya

Chirchiq- 2024

Fan/Modul kodi GM 4706		O'quv yili 2027-2028	Semestr 7	ECTS-Kreditlar 6	
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi		90	90	180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tabiiy fanlar va geografiya ta'limi metodikasini rivojlanishi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tuzilishi, mazmuni, uslubi va usullari, ta'lim jarayonini o'rgatishdir. Bu kursda talabalarga tadqiqot usullari, tabiiy fanlar va geografiya ta'limining jarayon qismlari, didaktik vositalar, dars berish to'g'risida ma'lumotlar berish, tabiiy fanlar va geografiya fanidan dars o'tishda texnika vositalaridan foydalanish, noan'anaviy va interfaol darslar tashkil etish borasidagi zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasidagi talablar, ya'ni o'quvchilarga tabiiy fanlar va geografiyadan qanday bilimlar berishni aniqlash, o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma, malakala va kompetensiyalarni shakllantirish yo'llarini, ta'lim jarayonini uyushtirish shakllarini aniqlash va har bir shaklga mos metod, o'quv jarayonlari, sinfdan tashqari ishlarini belgilashni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning tarbiyalanishi, ta'lim jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, sinalgan o'qitish metodlarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish yo'llarini izlash, geografiya ta'limi jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish, yangi pedagogik texnologiyalarni tabiiy fanlar va geografiya ta'limida qo'llash, geografik bilimlar, tushunchalar hajmini belgilash, bilim, tushuncha, ko'nikmalarni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, sinfdan tashqari ishlar mazmunini ishlab chiqish va belgilash hamda boshqalarni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari, shakllanish va rivojlanish tarixi Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi fanining obyekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari. O'quv fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.				

O'rta Osiyo va O'zbekiston hududi XIX asrda bosib olgunga qadar bo'lgan o'qitish tizimi. Mustamlaka davrida geografiya o'qitish metodikasining rivojlanishi. "Rus-tuzem" maktabalarining ochilishi va ularda geografiyaning o'qitilishi. 1900-yillarda ochilgan "Yangi usul" maktablari va ularda geografiya fanining o'qitilishi. 1900-1915 yillarda yaratilgan geografiyaga oid qo'llanmalar. A.Donish, M.Abdurashidxonov, M.Behbudiyning tabiiy fanlar va geografiya ta'limiga qo'shgan hissalar. Sobiq Ittifoqning o'zbek maktablarida geografiya ta'limi.

Mustaqillik yillarida tabiiy fanlar va geografiya ta'limidagi tub o'zgarishlar. 11 yillik ta'lim, akademik litsey, kollejlarda tabiiy fanlar va geografiya ta'limidagi o'zgarishlar. Mustaqillik yillarida yaratilgan «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik», «Tabiiy fanlar (Science)» va «Geografiya» darsliklari.

2-mavzu. Xorijda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda uzoq va yaqin xorij mamlakatlari tajribasi (Rossiya, Germaniya, AQSH, Kembrij maktablari, Koreya Respublikasi, Singapur, Qozog'iston misolida). Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, PIRLS, TIMSS)da tabiiy fanlar va geografiya ta'limining ahamiyati.

3-mavzu. O'zbekistonda tabiiy fanlar va geografiya ta'limining tarkibi va mazmuni

O'rta maktablarda, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar va geografiya o'qitishning maqsadi. «Tabiiy fanlar (Science)» va «Geografiya»ni o'qitishni ta'limiy, tarbiyaviy hamda bilish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati. Tabiiy fanlar va geografiya fanlaridan kompetensiyaviy yonvoshuvga asoslangan DTS va o'quv dasturining tarkibi hamda mazmuni. Ularning fanni o'qitishdagi ahamiyati.

4-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'qitish metodlari. Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlar tasnifi. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida metodlarning o'ri va roli. Vaqt o'tishi bilan metodlarning o'zgarishi. Metodlarga qo'yiladigan talablar. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Darslik bilan ishlash bilim olishning manbai ekanligi. Darslik bilan ishlash turlari; darslik matni bilan ishlash, reja tuzish; darslikdagi rasmlar, xaritalar, jadvallar, chizmalar, mashq, savol va topshiriqlar bilan ishlash. Qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil bilim olish yo'llari.

Dars. O'quvchilarning mustaqil ishlari. Maslahatlar uyushtirish. Fakultativ mashg'ulotlar, ekskursiyalar. Uyg'a vazifaning ta'limda tutgan o'ri va roli. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida dars. Atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik va geografiya darslarining ta'limda tutgan o'ri. Darsga

qo'yiladigan talablar. Darsning turlari. Aralash dars. Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish darsi. Mustahkamlash darsi. Takrorlash darsi.

5-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'quv ekskursiyalari

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ekskursiyalarning o'rni va roli. Tabiatshunoslik va geografiyaga oid bilim va tushunchalarni shakllantirishda ekskursiyaning ahamiyati. Ekskursiya o'tkazishga tayyorgarlik bosqichlari. O'quv va o'lkashunoslik ekskursiyalari. Tabiiy geografik ekskursiyalar. Iqtisodiy geografik ekskursiyalar.

O'quvchilar bilimini baholashning zarurligi. Baholashga qo'yiladigan talablar. Baholash turlari. Formativ va summativ baholash. Baholash borasida xalqaro tajribalar. O'quvchilar bilimi va kompetentligini baholash mezonlarining tavsifi.

6-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limining jarayon qismlari. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida kompetensiyalar

Bilim. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida bilim, tushuncha, sabab-oqibat, qonuniyat, nazariya, tasavvur aloqadorligi. Bilimlarning turlari. Nazariy va emperik bilimlar. Tabiatshunoslikka xos tushunchalar. Tabiiy geografik tushunchalar. Iqtisodiy geografik tushunchalar. Aniq va mavhum tushunchalar. Yakka tushunchalar. Umumiy tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish bosqichlari. Tushunchalarni shakllantirishda xilma-xil ta'lim vositalaridan foydalanish.

Ko'nikma va malaka. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Geografik ko'nikma va malakalar mohiyati, mazmuni. Ko'nikmalarga va malakalarga xos bo'lgan belgilar. Ta'limda ko'nikmalarning o'rni va roli. Ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi. Ko'nikmalarni shakllantirishda ta'lim vositalari va undagi topshiriqlar mazmuni. Geografik xaritalar ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi.

Kompetensiya tushunchasining mazmuni. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida kompetensiyaviy yondoshuv. Kompetensiyalarning turlari. Tabiiy fanlar va geografiya darslarida kompetensiyalarni shakllantirish usullari. Kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, mantiqiy topshiriq va masalalarning o'rni.

7-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limi vositalari hamda ular bilan ishlash metodikasi

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari: ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik, ahloq-odob, vatanparvarlik, mehnat, iqtisodiy tarbiya va boshqalar.

O'quv vositalari tasnifi. Tabiiy obyektlarning tasviri. Predmet va hodisalarning shartli belgilar bilan ifodalangan tavsifi va tasviri: verbal;

kartografik; chizma-statistik; chizma-sxematik. O'quv jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish. Texnika vositalaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar. AKTdan tabiiy fanlar va geografiya ta'limida foydalanish.

8-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida xarita va globuslardan foydalanish. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida foydalaniladigan o'quv-ko'rgazmali vositalar tasnifi

Xarita bilan ishlash. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida qo'llaniladigan xaritalarga tavsif. Xaritalarni tushunish, bilish, o'qish va solishtirish. Tabiiy va iqtisodiy xaritalarni o'qish. Globus bilan ishlash metodlari. Globusning o'ziga xos xususiyatlari. Globusda koordinatalarni, masofalarni o'lchash. Kuzatish va tajriba usullari.

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida rasmlardan foydalanish. Diagramma va grafiklar bilan ishlash. Ularning turlari. Jadvallar bilan ishlash. Modellar bilan ishlash. Tog' jinslari namunalari va gerbariyalar bilan ishlash. Statistika materiallari bilan ishlash. Ko'rgazmali vositalarga qo'yiladigan talablar.

9-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tadqiqot usullari

Ilmiy tadqiqot uyushtirishni ahamiyati. Tabiiy fanlar va geografiya fani o'qituvchilari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi. Tadqiqotda nazariy va eksperimental-emperik metodlar. So'rovnoma va kuzatish uyushtirish. Tajriba sinflarida eksperiment uyushtirish bosqichlari.

10-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya darslarini rejalashtirishning ta'limda tutgan o'rni va roli.

O'qituvchi ish faoliyatida rejalashtirishning zarurligi. Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar. Taqvim-mavzuiy rejalar. Darslarni rejalashtirish. Tabiiy fanlar va geografiya darslarining tahlili. Tahlil qilishning zarurligi, ahamiyati. Dars tahlilining maqsad va vazifalari. Tabiiy fanlar va geografiya darslarini tahlil qilish tartibi.

11-mavzu. Geografiya o'quv laboratoriyasi va uni jihozlash. Zamonaviy geografiya xonasi

Geografiya o'quv laboratoriyasi (geografik maydoncha)ning o'quv jarayonidagi hamda tabiiy fanlar va geografiya ta'limidagi ahamiyati. Geografiya o'quv laboratoriyasining tuzilishi. Geografik maydoncha: astronomik, meteorologik, gidrologik, geomorfologik kuzatishlar olib boriladigan joy.

Geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni va ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. Geografiya xonasi jihozlash. Zamonaviy geografiya xonasini jihozlashga qo'yilgan talablar va bu boradagi mutasaddi tashkilotlarning tavsiyalari.

12-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. O'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida umumiy tushuncha, ularning tasnifi. Multimediali texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, o'quv-uslubiy ta'minot, interfaol doskalardan foydalanish.

13-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'quvchilar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari va metodlari

Uch darajali testlar asosida tabiiy fanlar va geografiya ta'limi jarayonini yutuqlarga erishish darajasini baholash. Sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari. Doimiy o'tkaziladigan ishlar turlari. Tabiatshunoslik va geografiyaga oid to'garaklar. Fakultativ mashg'ulotlar, muzeylar, o'quvchilarning ilmiy jamiyatlari. Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlar. Olimpiadalar, geografik haftaliklar. Geografik kechalar.

14-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida amaliy topshiriqlarni tuzish hamda ulardan foydalanish usullari

Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda mashq va masalalarning ahamiyati. Ularga qo'yiladigan ilmiy va metodik talablar. Geografiya fanidan mashq va masalar tuzish tajribasi. O'quvchilar bilimini sinash, ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda amaliy topshiriqlar (geografik mashq va masalalar, amaliy topshiriqlar)dan foylanishning roli. Amaliy topshiriqlarning geografiyadan fan bellashuvlarini tashkil etishdagi ahamiyati.

15-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Ta'limning keys-stadi texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidasi. Geografiyani o'qitishning ilg'or pedagogik metodlari. Muammoli o'qitish. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish.

III. Amaliy mashg'ulotlarni bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsia etiladi.

1. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari.
2. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi fanining shakllanishi va rivojlanishi.
3. Xorijda tabiiy fanlar (Science) va geografiya ta'limi.
4. Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, PIRLS, TIMSS)da tabiiy fanlar va geografiya ta'limining ahamiyati.
5. «Tabiiy fanlar (Science)» va «Geografiya»ni o'qitishni ta'limiy,

tarbiyaviy hamda bilish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

6. Tabiiy fanlar va geografiya darslarida ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiyani shakllantirish yo'llari va usullarini modellashtirish.

7. Darsga qo'yiladigan talablar. Darsning turlari. Aralash dars.

8. Tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarni shakllantirishning yo'llari (turli geografik tushunchalar misolida).

9. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ekskursiyalarning o'rni va roli

10. O'quvchilar bilimi va kompetentligini baholash mezonlari

11. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida bilim, tushuncha, sabab-oqibat, qonuniyat, nazariya, tasavvur aloqadorligi

12. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ko'nikma va malakalarni shakllantirish

13. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari

14. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish

15. Globus va xaritalar asosida amaliy topshiriqlar bajarish, ularni tasniflash.

16. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

17. Tabiiy fanlar va geografiya fani o'qituvchilari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi

18. Tajriba sinflarida eksperiment uyushtirish bosqichlari

19. O'qituvchi ish faoliyatida rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.

20. Tabiiy fanlar va geografiya darslarining tahlili.

21. Geografiya o'quv laboratoriyasining tuzilishi

22. Zamonaviy geografiya xonasini jihozlashga qo'yilgan talablar

23. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish.

24. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

25. Uch darajali testlar tuzish hamda ulardan tabiiy fanlar va geografiya ta'limida foydalanish metodikasi.

26. Sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari.

27. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda mashq va masalalardan foylanish metodikasi

28. O'quvchilar bilimini sinash, ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda amaliy topshiriqlar (geografik mashq va masalalar, amaliy topshiriqlar)dan foylanish metodikasi

29. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish

30. Tabiiy fanlar va geografiya fanlariga oid noan'anaviy dars ishlanmalarini tuzish metodikasi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'rta asrlar Sharq olimlarining tabiiy fanlar va geografiyaga oid ishlari.
2. Turkiston jadidchiligi davrida geografiya fani va ta'limi.
3. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya maktablarida tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishning holati, yutuqlari va muammolari.
4. Koreya Respublikasi, Turkiya va Singapurda tabiiy fanlar va geografiya ta'limining holati, qo'llaniladigan metodikaning tavsifi.
5. O'zbekistonga qo'shni mamlakatlarda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi.
6. Geografiya darslarida mediaresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish.
7. Tabiiy fanlar va geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish metodikasi.
8. O'quvchilarni tabiiy fanlar va geografiya fanlaridan PISA, TIMSS singari xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash.
9. Tabiiy fanlar va geografiya darslarida iqtidorli hamda o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash usullari.
10. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining shakllanish tarixi.
11. O'zbekistonda tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining rivojlanish bosqichlari.
12. Geografiya va geografik bilimlarni zamonaviy ahamiyati.
13. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining fanlar tizimida tutgan o'rni va boshqa fanlar bilan integratsiyasi.
14. Turkiston jadidchiligi davrida geografiya fani va ta'limi.
15. Germaniya Federativ Respublikasida va Kembrij maktablarida tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishning holati, yutuqlari va muammolar.
16. Koreya Respublikasi va Singapurda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi.
17. Rossiya Federatsiyasida tabiiy fanlar va geografiya ta'limining holati hamda bu borada xalqaro baholashlarda erishilayotgan natijalar.

18. Turkiya, Fransiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tabiiy fanlar va geografiya ta'limining holati.

19. O'zbekistonga qo'shni mamlakatlarda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi.

20. O'zbekistonda tabiiy fanlar va geografiya ta'limiga kompetensiyaviy rivojlanishning joriy etilishi hamda unga hissa ko'shgan olimlar.

21. O'zbekistonda tabiiy fanlar va geografiya fanlarini o'qitish jarayonidagi yutuqlar va muammolar.

22. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limining sifatini oshirishda multimedia ilovalarining roli.

23. Tabiiy fanlar (Science) darslarida mediaresurslardan foydalanish hamda o'quvchilarning bilim samaradorligiga erishish masalalari.

24. Tabiiy fanlar va geografiya fanlaridan o'quvchilarning mashq daftarlarini ishlab chiqish metodikasi.

25. Geografiya fanidan 7-sinf o'quvchilari uchun mashq daftarlarini ishlab chiqish.

26. Geografiya darslarida mediaresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish.

27. Tabiiy fanlar va geografiya darslarida o'quvchilarda geografik terminlar va joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish.

28. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda topishmoqlar va xalq maqollaridan foydalanish.

29. 10-sinf o'quvchilari uchun geografiya fanidan mashq daftarlarini ishlab chiqish metodikasi.

30. Tabiiy fanlar va geografiya darslarining tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati.

31. Zamonaviy geografiya xonasi va uni jihozlash.

32. Geografik maydonchadan tabiiy fanlar va geografiya darslarida foydalanish.

33. Geografiya fani o'qituvchisining portreti, unga qo'yiladigan talablar.

34. Geografiya darslarida darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ishlash metodikasi.

35. Geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish metodikasi.

36. O'quv ekskursiyalari orqali maktab o'quvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari.

37. Geografiyadan o'quvchilarni fan bellashuvlariga tayyorlash metodikasi.

38. O'quvchilarni tabiiyot va geografiya fanlaridan PISA, TIMSS singari xalqaro baholashlarga tayyorlash.

39. Geografiya fanidan mashq va masalar tuzish tajribasi.

40. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion

	pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish. 41. 1-6-sinflar "Tabiiy fanlar (Science)" darsliklarining mazmuni, tarkibining tahlili. Berilgan mavzular bo'yicha mustaqil dars o'tish. 42. 7-sinf "Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi)" darsligining mazmuni, tarkibining tahlili. Berilgan mavzular bo'yicha mustaqil dars o'tish. 43. 8-sinf "Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi)" darsligining mazmuni, tarkibining tahlili. Berilgan mavzular bo'yicha mustaqil dars o'tish. 44. 9-sinf "Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)" darsligining mazmuni, tarkibining tahlili. Berilgan mavzular bo'yicha mustaqil dars o'tish. 45. 10-sinf "Geografiya (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)" darsligining mazmuni, tarkibining tahlili. Berilgan mavzular bo'yicha mustaqil dars o'tish.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi tushunchasi va uning nazariy asoslari; - shu fan bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va vositalari; - O'zbekiston va xorijda tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishning asosiy yo'nalishlari; - didaktik vositalardan foydalanish, ta'lim turlarini va dars o'tish jarayonida turli metodlarni qo'llay olish haqida bilimga; - geografiya fanining an'anaviy va noan'anaviy metodlarini; - geografik qobiq, litosfera, gidrosfera va uning tarkibiy qismlari, atmosfera, biosfera, geografik muhit va inson munosabatlarining geografik asoslariga oid nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkaza olish ko'nikmasiga; - o'zining kelajakdagi ilmiy-pedagogik faoliyati davomida tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi kursida egallagan bilim va tasavvurlarini darslarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tishda qo'llay olish; - tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi kursida egallagan bilim va qo'nikmalari asosida dars jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etgan holda mustaqil dars o'ta olish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari. - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar 1. Avezov M.M. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi. –T.: 2024. 2. Djumaboyeva S.K. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi. Chirchiq, 2024. 3. Vaxobov X., Alimqulov N.R. Sultanova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. T.: Nodirabegim, 2021y. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Avezov M.M. Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi. – T.: "VneshInvestProm", 2020. 2. Avezov M.M., Mirakmalov M. Geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlar. –T.: "Donishmand ziyosi" nashriyoti, 2022. 3. Abdimurotov O.U. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. Chirchiq, 2022. 4. Rajabov F.T. Zamonaviy yondoshuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Toshkent. 2024. 5. Бахромов Қ. География ўқитиш методикаси. -Бухоро, 2007. 6. Душина И.В., Понурова Т.А. Методика преподавания географии. -Москва, 1996. 7. Сухоруков В.Д. Суслов В.Г. Методика обучения географии. Учебник и практикум. – М.: «Юрайт», 2023. 8. Vahobov H. va boshqalar. Geografiya o'qitish metodikasi. –T.: 2020. 9. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. -Урганч, 2001. 10. Egamov B. Ta'limda tog' turizmi. –T.: «Ilm ziyo», 2012. 11. Mirakmalov M., Avezov M., Nazaraliyeva E. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019. 12. Мўминов О. География таълими методикаси. –T.: "Ўқитувчи", 1982. 13. Холбоев С., Эгамов Б. Туркистон жадидчилиги даврида география фани ва таълими. –T.: "Ўзбекистон миллий кутубхонаси", 2010. 14. Таможня Е.А., Смирнова М.С., Душина И.В. Методика обучения географии. Учебник и практикум. – М.: «Юрайт», 2023.

	X. Axborot manbalari: 1. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti. 2. www.unilibrary.uz – O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi. 3. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti. 4. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayt.
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil “29” <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul: Abdimurotov O.U. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrası mudiri, p.f.f.d.(PhD)
9.	Taqrizchilar: Djumaboyeva S.K. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrası dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD) M.M.Avezov – O‘zMU, “Tabiiy geografiya” kafedrası dotsenti v.b., geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).